

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

2013-yil  
20-may  
№:20  
(66925)

# Tong Yulduzi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

**Qisqa satrlarda**

## KAMALAK JILOSI

O'zbekiston Badiiy akademiyasi Markaziy ko'rgazmalar zalida «Kamalak jilosi» deb nomlangan rasmlar ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.

«Mehribonlik uy»-lari tarbiyalanuvchilari o'rtasida o'tkazilgan mazkur tanlov O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi, «Sen yolg'iz emassan» respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi hamkorligida tashkillashtirildi. Uning hududiy bosqichlarida 1500 dan ziyod o'g'il-qiz ishtirok etdi.

## MUSIQA FESTIVALI

O'zbekiston davlat konservatoriyasida «Navro'z sadolari» ko'p ovoqli milliy cholg'u ansamblarining IV Respublika festivali bo'lib o'tdi. 54 jamoa ishtirok etgan mazkur festivalda 1000 dan ziyod iqtidorli bolalar o'z mahoratlarini namoyish etishdi. 2005-yildan buyon o'tkazib kelinayotgan mazkur festivalning bu yil ko'lami yanada kengayib, ishtirokchilarining yoshi birmuncha yoshardi. Unda maktabgacha ta'lim muassasalari kichikintoylari ham ishtirok etishdi.



## BOLALARGA TUHFA «BOLAJON»

Aziz bolajonlar! Yozgi ta'til oldidan sizlar uchun ajoyib yangiligimiz bor. Poytaxtimizda «Bolajon» deb nomlangan yangi istirohat bog'i ochildi. Qariyb besh gektar maydonni egallagan bog'da turli attraksionlar, ertaklar maydonchasi va musiqali favvora barpo etilgan. Ular orasida barchani hayratga solayotgan eng uzun attraksion Italiyadan keltirilgan bo'lib, uzunligi 40 metr, balandligi 14 metrni tashkil etadi. Shuningdek,

sportsevar bolajonlar uchun shaxmat, shashka, stol tennisi bilan shug'ullanish imkoniyati ham yaratilgan. So'lim gulzor-u yashil maysazorlarni ko'rib, ko'zingiz quvnaydi.

Shu kungacha poytaxtimizda mavjud bo'lgan o'n ikkita madaniyat va istirohat bog'i orasidan o'rin egallagan ushbu so'lim bog' endilikda yuzlab bolajonlarning sevimli maskaniga aylansa, ajabmas.

**Qo'li gul chevar bo'lish qanday yaxshi! Hatto qog'ozdan ham libos tiksa bo'lar ekan-a?!**

5-bet

Zuhra NISHONOVA olgan suratlari



## CHET TILLARI FAN OYLIIGI

May oyining chet tillari fani oyliigi, deya e'lon qilinganidan xabaringiz bor.

Oylik doirasida poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi umumta'lim maktablarida ham ko'plab tadbirlar o'tkazilmoqda. Tuman Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limining ingliz tili uslubchisi Munira opa Tolipova boshchiligidagi boshlang'ich sinflarda ingliz tilining o'qitilishiga doir o'tkazilayotgan seminar-treninglar barchada katta qiziqish uyg'otmoqda.

Ingliz tili o'qituvchilarining bilim va malakalarini oshirish, tajribalarini yanada takomillashtirish maqsadida, tumandagi 169 nafar ingliz tili fani o'qituvchilarining tezkor malaka oshirish kurslarida qayta tahsil olishlari yo'lga qo'yilgan.

O'quvchilarga ingliz tilidan saboq berish uchun avvalo, o'qituvchining o'zi

chet tilini mukammal bilishi lozimligini yaxshi anglagan ustozlar o'z ustilarida tinimsiz ishlab, malaka oshirmoqdalar.

Jumladan, tumandagi 113-umumta'lim maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi Shohista opa Jalilova ham turli o'quv qo'llanmalari asosida o'qitishning yangi pedtexnologiyalarini qo'llagan holda darslarni qiziqarli va mazmunli o'tishga intilmoqda. Yangi o'quv yilidan qo'llaniladigan slaydlar, multimedialar ustida ish olib bormoqda.

Kichik yoshdagi o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatish o'qituvchidan alohida pedagogik mahorat talab qiladi. Boshlang'ich sinflarda o'yin tarzida o'tiladigan ingliz tili darslari kichikintoylarda xorijiy tillarga qiziqish uyg'otishi, tabiiy.

O'z muxbirimiz



## TASHABBUSNING QANOTI BOR

Prezidentimizning 2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi qarorida ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini uzluksiz o'rganishni tashkil qilish bilan birga o'qituvchilar malakasini oshirishga ham alohida e'tibor qaratilgan.



Ana shu ezgu maqsadlarni amalga oshirishda muhim dasturlamal bo'lib xizmat qilayotgan ushbu qarorda 2013-yilning 1-mayiga qadar umumta'lim maktablarining 1-sinfidan boshlab chet tillar ta'limini uzluksiz joriy etish, umumta'lim muassasalari o'quvchilarini chet tili darsliklari bilan ta'minlash lozimligi ta'kidlangan edi. Uning ijrosini ta'minlash maqsadida Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi 34-umumta'lim maktabida ham qator ibratli ishlar amalga oshirildi.

Maktab direktori D. Rahimovning tashabbusi bilan tashkil etilgan ingliz tili kursida

o'qituvchilar ikki guruhga bo'linib, katta qiziqish bilan til o'rganmoqdalar.

Haftaning chorshanba va shanbasi «Ingliz tili kunlari» deb e'lon qilinishi ham ezgu ishning keng quloqch yoyishiga xizmat qilmoqda.

Kelajak yosh avlod qo'lladidir. Ularni har jihatdan sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi o'qituvchi-murabbiylar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Uning zalvorini chuqur his etish uchun esa bugungi kun pedagogi doimo o'z ustida ishlashi, izlanishi zarur. Ana shundagina ko'zlangan maqsadimizga yetishamiz.

Navro'z NORBOBOYEV,  
Qashqadaryo viloyati

## SHOIRNI XOTIRLAB...



Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 5-umumta'lim maktabida taniqli shoir Muhammad Yusufni xotirlab «Vatanni Muhammad Yusufdek seving» mavzusida adabiy kecha bo'lib o'tdi. O'ziga xos adabiyot bayramiga aylanib ketgan mazkur tadbirga ota-onalar, hekxa ustoz-murabbiylar taklif etildi.



Maktabning adabiyotga ishtiyoqmand 5-, 6-, 7-sinf o'quvchilaridan Mahliyo Baxtiyorova, Sardor Baxtiyorov, Mahbuba Karimova, Namuna Tolipova, Shukrullo Husanov, Nargiza Rustamova kabilar shoirning ijodiy faoliyati haqida gapirib, she'rlaridan namunalari o'qidilar. Magnit lentasiga yozib olingan shoirning o'zi o'qigan she'rlari yangraganda, yig'ilganlar hayajon bilan tinglashdi, ustozlar ko'zlarida yosh qalqidi.

Mazkur bilim dargohida uzoq yillar samarali mehnat qilgan faxriy o'qituvchilar Rustam ota Abdurkarimov, Mahmuda opa Najimova Vatani, tinchlik, burch, elga

sadoqat kabi yuksak fazilatlar haqida o'quvchilarga so'zlab berdilar. Bilim dargohida o'ttiz yildan ziyod vaqt mobaynida mehnat qilgan ana shunday nuroniy pedagoglardan biri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Muhayyo To'laganovning shoir haqidagi xotiralari tadbir ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi.

Tadbir tashkilotchisi, adabiyotga oshno dillarga olam-olam zavq ulashgan ijodkor o'qituvchi Marg'uba Sirojiddinovaga kecha mehmonlari va maktab ma'muriyati tomonidan alohida minnatdorchilik bildirildi.

Muzaffar AHMEDOV



## USTOZNI TABRIKLAYMIZ!

Qishlog'imni sog'inib, yo'lga otlandim. Qadrdon mahallamni, maktabimni ko'rib, to'lqinlanib ketdim. Ilm dargohimga kirib, ko'zlarimga ishonmay qoldim. Chor-atrof turfa gullarga burkangan. Qadrdon ustozlarim meni quchoq ochib qarshi olishdi. Ularning orasida direktorimiz Erjigit aka Ergashevning ham borligi meni yanada quvontirdi.

Yangi ta'mirdan chiqqan maktabda kompyuter xonalari, sport zali, to'garaklar uchun ajratilgan alohida xonalar o'quvchilar ixtiyorida. Bu sharoitlarni yaratishda maktabimiz rahbarining xizmatlari beqiyos.

Yaqinda Erjigit aka Ergashevning tavallud ayyomi nishonlandi. Biz, sobiq o'quvchilari mehdariyo ustozni chin dildan muborakbod etamiz. Yosh avlodni tarbiyalashdek mas'uliyatli ishlarida ularga yutuqlar tilaymiz.

Zulayho ZARFULLAYEVA,  
O'zMU qoshidagi S.H.Sirojiddinov nomli akademik litseyning 2-bosqich o'quvchisi

Biz hademay maktabni tamomlaymiz. Bunday kunlarda, tabiiyki, har birimiz ilk ustozlarimizni yodga olamiz. Qo'limizga qalam tutqazib, harf tanitgan ustozimiz Anora opani beixtiyor yodga olamiz. Ming afsuski, bitiruv kechamizni ularsiz o'tkazadigan bo'ldik.

Anora opa Hakimova barchamizning eng sevimli, mehribon ustozimiz bo'lib, nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar orasida ham hurmatga sazovor edilar. Jonkuyar, fidoyi ustozimizni hech qachon unutmaymiz. Bizga bildirgan ishonchini hamisha oqlaymiz.

Surxondaryo viloyati,  
Termiz shahridagi  
11-maktabning 9-«A»  
sinf o'quvchilari

Yaqinda Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanining so'lim Chimyon qishlog'ida joylashgan «Kamolot» yoshlar oromgohida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashining «Yetakchi – TUR» o'quv-semilikamizning barcha viloyatlaridan yetakchilar, «Kamolot» sardorlari hamda «Kamalok»chilar ishtirok etishdi.

Mazkur seminar ishtirokchilari Namangan viloyati, Pop tumani, Xo'jaobod qishlog'idagi 7-umumta'lim maktabi o'quvchilari gazetamiz mehmoni bo'lishdi.

## POPNING IBRATLI QIZLARI



Yulduzxon Turg'unova 4-sinfda o'qiydi. O'quv yilini a'lo baholar bilan yakunlayotgan Yulduzxon «Qiz bola saranjom-sarishta, pazanda, tikuvchi va albatta, sog'lom bo'lishi shart», deya ta'kidlaydi. Shu sababdan ham maktabda tashkil etilgan «Mohir qo'llar» hamda «Badiiy gimnastika» to'garaklarining eng faol a'zolaridan biri hisoblanadi. «Mohir qo'llar» to'garagi rahbari Gulbahor Usebbekova, «Badiiy gimnastika» to'garagi murabbiyi Xurshida Murodova, boshlang'ich sinf o'qituvchisi Shohida Rustamova va Yulduzxondek shogirdlari borligidan faxrlanishadi.

– Tumanimiz nomidan «Yetakchi –TUR» o'quv-seminari va sayohat dasturida ishtirok etishim zimmamga katta mas'uliyat yukladi. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi raisi Bahodir G'aniyev qo'lidan guvohnomani qabul qilib olishim esa bu mas'uliyat hissini ikki karra oshirdi, – deydi Yulduzxon.



## RASMLAR

Maktabimizda «Obod turmush yili»ga bag'ishlab 2-, 7-sinf o'quvchilari orasida an'anaviy rasmlar tanlovi o'tkazildi. Unda Mustaqillik maydoni, O'zbekiston ramzlari, ibratli oilalar aks ettirilgan ijodiy ishlarimiz bilan qatnashdik.

Tadbirda ustozlarimiz N.Sedova va M.Mirzayeva boshchilik qilishdi.

Tanlovda singlim Samira ham musaf-

## TANLOVI

fo osmon, boshimiz uzra nur sochib turgan quyosh, ozoda, sarishta hovlimiz, gulzorda yugurib yurgan mitti jo'jalar aks etgan rasmi bilan muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Yasmina RIXSIYEVA,  
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi «Orom» o'quv-tarbiya markazining 4-sinf o'quvchisi



Mohinabonu Madaminova 8-«A» sinf o'quvchisi. O'qishda va «Kamolot» tadbirlarida barchaga o'nak. «Kitob – bilim manbai» degan naqlga doimo amal qiladi. Do'stlariga ham ko'proq kitob o'qishni maslahat beradi. Sohbiqiron Amir Temur bobomizning «Bilmaslik ayb emas, bilishni istamaslik aybdir» degan hikmatini takrorlashdan charchamaydi.

– O'quv-seminar davomida ko'plab do'stlar orttirdik, bilimimiz boyidi, dunyoqarashimiz kengaydi. Sardorlarning ibratli ishlaridan andoza oldik, – deydi Mohinabonu.



ZUBAYDA olgan suratlar

## QORAQALPOQ BOYTERAGI O'ZINGSAN

Kuni kecha maktabimizda O'zbekiston Qahramoni, Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibrohim Yusupovning 84 yilligini nishonladik. «Qoraqalpog' boyteragi o'zingsan» deb nomlangan badiiy kechani maktabimiz direktori Q.Pirniyozov ochib berdi.

Shoirning she'rlari, doston va dramalari o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, ingliz, fransuz tillariga tarjima qilingan bo'lib, xorijlik kitobxonlar qalbiga ham yo'l topa olgan.

Kechada o'quvchilar shoirning she'rlaridan, dostonlaridan o'qib berishdi. Tadbirda faol qatnashgan o'quvchilarga shoirning she'riy kitoblari sovg'a qilindi.

Sultonbek ZIYAYEV,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qonliqo'1 tumanidagi 7-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

Qizlar o'z maktablari haqida ham faxrlanib gapirishdi. Ularning bilim olishlari uchun yaratilgan sharoitlardan, ustozlarining bilimdonligidan to'lib-toshib so'zlashdi.

Biz esa 2011–2012-o'quv yilida tumanda birinchi o'rinni egallagan mazkur bilim dargohining viloyat va respublika miqyosida ham birinchilikni qo'ldan bermasliklariga tilakdosh bo'ldik.

Feruz SOYIBJON qizi

## E'tirof

Mazkur yilning boshlari edi. Fahririyatga kirib kelgan ayol xonaga bir qur nazar tashladi. Hamma o'z ishi bilan band. Kimdir kompyutorda she'r ko'chiryapti, kimdir maqolasini tahrir qilyapti. Ko'ziga bo'shroq ko'rindim shokilli, to'g'ri men tomon yuzlandi.



## USTOZ HAQIDA SO'Z

– Xorazmdan keluvdik, domla, – dedi iymaniygina salom berarkan. – O'quvchim Zulfiya mukofoti nomzodi. Tanlovning respublika bosqichiga keluvdik. Bahonada sizlarni ham ko'rib o'taylik, dedik. O'quvchilarim «Tong yulduzi»ni sevib o'qishadi. Ular ham gazetada maqolalarini chiqarishsa bo'ladimi?

Yaqin ming chaqirim yo'l bosib kelgan bu fidoyi ustozning gaplaridan zavqim toshdi.

– Albatta, – dedim mamnun bo'lib. – Bu axir ularning gazetasi-ku.

Xorazm viloyati, Hazorasp tumanidagi 2-umumta'lim maktabining biologiya fani o'qituvchisi Feruza opa Bobojonova bilan shu tarzda tanishgandik. Ko'p o'tmay, hazorasplik o'quvchilar yo'l-lagan maktablar tahririyatimizga tez-tez kela boshladi. Feruza opaning sa'y-harakati bilan nafaqat 2-maktab, balki tumandagi boshqa maktab o'quvchilari ham faol muxbirlarimizga aylandilar. Jonkuyar ustozga, o'zingiz haqingizda ham yozaylik, hamkasblarga ibrat bo'lsin, deganimizda, meni qo'ying, bolalar gazetada she'r yoki maqolasi chop

etilsa, xursand bo'lishadi, deya rozi bo'lmagandilar. Shunday bo'lsa-da, shogirdlardan ustoz haqida ko'p narsani bilib oldik. O'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish maqsadida turli ko'rik-tanlovlar, noan'anaviy darslar o'tarkanlar. Ustoz o'tkazgan «Tabiat – chekmasin aziyat», «Go'zal tabiatni asrash mas'uliyati», «Yosh zoolog», «Salomatlik – tuman boylik», «Ibn Sino avlodlarimiz», «Biologiya – hayot haqidagi fan» kabi tadbirlar doirasida o'quvchilar tomonidan tayyorlangan devoriy gazetalar, referatlar, flora va faunaga doir so'nggi ma'lumotlar, krossvord va turli ko'rgazmalar ularning bu fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiribdi. Feruza opaning «Shuhrat» medali sohibasi ekanligini ham shogirdlarining maktublari orqali bilib oldik.

Yaqinda fidoyi muallimamiz tahririyatga qo'ng'iroq qilib, oliy toifali o'qituvchi bo'lganliklarini hayajon bilan ma'lum qildilar.

Bu xabardan quvonib, mehnatingiz e'tirofi muborak bo'lsin, deya qutladik.

Yu.ABDULLAYEV

Bolalikning quvnoq damlari ko'ngilning cheksiz sarhadlariga muhrlanib, zalvorli xotiralar bayozi yillar o'tib borgani sayin seni o'z og'ushiga chorlayverarkan. Devor darmiyon qo'shnimizning o'g'li – qadrdon o'rtog'im Baxtiyor bilan maktabdan kela solib, choyimizni apil-tapil ichganicha, xurjunni eshakka tashlab, o'rog'imizni so'roq aylab, dalalar bag'riga otlanardik. Yetmish beshinchi yillar, ayni paxta yakkahokimligi avjiga chiqqan palla. Dalalarimizga tinimsiz zahardori yog'ilardi...

## USTA BAXTIYOR



Baxtiyor ishi puxta, omadli bola edi. Qaysi paxta maydonga zahardori sepilgani-yu, qayerda o't ko'p bo'lishini hech kim Baxtiyorchalik yaxshi bilmasdi. Bilag'onlik unga jamoaning eng zo'r peshqadam suvchisi bo'lgan otasi Kenjaboy amakidan o'tgan bo'lsa, ajabmas. U kishi erta-yu kech egatlar bilan dillashib mehnat qilgani bois, paxta maydonlarining holatini besh panjadedk yaxshi bilardi. Shuning uchun ham do'stim Baxtiyorning «razvedka»si hech qachon bizga pand bermagan. Bir qancha bolalar zaharlangan dalalardan o't tashib, oqibatda moli zaharlanib qolganining shohidi bo'lganman. Ammo men Baxtiyorga ishonardim...

Baxtiyor bolaligidan ustachilik kasbiga qiziqardi. Men esa dostonlar olamidani ko'nglimni uzolmasdim. Bolalikdagi qadrdonim bilan ko'ngillarimiz bog'lanib ketgani bois uning hayotidan hozirgacha xabardor bo'lib yuraman. U bilan birgalikda yuksak orzular sari odimlab borayotganimni his etaman. Har gal qishloqqa borganimda, qo'lida duradgorlik anjomlari solingan kattakon sumkasini ko'tarib yurgan do'stinga ro'baro' kelaman.

– Ha, shoir, – deydi qulochini keng yozib. – Biz kabi ustalarni ham maqtab bir she'r yozsangiz-chi! Radio, televizor, gazetalarda ijodingizni doimiy kuzatib yuraman, kitoblaringizni birma-bir o'qib chiqqanman. Lekin usta Baxtiyor haqida biror og'iz so'z yo'q, – deydi hazilomuz. Shunda usta do'stimning e'tirozi to'g'ri ekanini fahmlayman.

U kuni otamning usta Baxtiyorni alqab gapirgan gaplaridan boshim osmonga yetdi:

– Yaratgan usta do'stingning umrini ziyoda qilsin. Qo'li gul yigit, baraka topkur. Qishloqdagi barcha imoratlarining qurilishiga bosh-qosh... Do'stimning allaqachon hamqishloqlarimiz qalbidan «Usta Baxtiyor» bo'lib joy olganidan quvonib, hazrat Navoiy bobomizning quyidagi baytlari yodimga tushdi:

*Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,  
Oncha borkim Ka'ba vayron bo'lsa obod aylagay.*

Qog'ozga quyilgan dil so'zlarim do'stimning ko'nglini shod etsa, o'zinni baxtiyor his etardim. Qishlog'imizning ko'rkiga-ko'rk qo'shayotgan yangi, ko'rkam imoratlarga boqib, qo'lingiz dard ko'rmasin, bolalikdagi qadrdonim, degim keladi.

AXTAMQULI

Dunyoda xazinalar ko'p. Ko'plab kitoblar jamlangan kutubxonalar – ma'naviyatimiz xazinasi. Yer ostidan olinayotgan oltin, kumush, mis kabi boyliklar – qimmatbaho xazina. Lekin inson hayoti bilan chambarchas bog'liq shunday boyliklar borki, ularsiz turmushimizni tasavvur qilish qiyin. Gaz, neft, ko'mir ana shunday zaruriy boyliklar sirasiga kiradi.

Bugun sizga ko'mir xomashyosi va uning konlari haqida qisqacha ma'lumot bermoqchimiz.

Xo'sh, ana shu qimmatbaho boyliklardan biri bo'lgan ko'mir qanday qazib olinadi? Qo'ng'ir va toshko'mir deya nom olgan ma'danlarga boy konlar qayerda joylashgan?

O'tgan asrning 30-yillarida yurtimizning Ohangaron vodiysida geologiya-qidiruv ishlari olib borilib, 1934-yilda Qurama va Chotqol tog'lari etagida katta hajmdagi ko'mir konlari mavjudligi aniqlangan. Ko'mir xazirasining asosiy qismi 860 metr chuqurlikda bo'lib, u taxminan 1,9 milliard tonnaga teng ekan.

## «QORA OLTIN» XAZINASI



Ma'lumot o'rinda shuni aytish lozimki, bu Markaziy Osiyodagi mavjud barcha konlardagi ko'mir xazirasining to'rt dan bir qismini tashkil etadi.

Ushbu tabiiy boylikni qazib olish ishlari 1940-yildan boshlab amalga oshirila boshlandi. Angren ko'mir konida ikki xil usulda ko'mir qazish yo'lga qo'yilgan. 1942-yildan ishga tushirilgan 9-shaxta qariyb 100 metr chuqurlikda

## 19-may – Konchilar kuni

joylashgan bo'lib, bu konlardagi qo'ng'ir ko'mir xaziralari qariyb 100 yilga yetadi, deya taxmin qilinadi. Surxondaryodagi «Sharg'un» va «Boysun» shaxtalarida yiliga o'rtacha 3 mln. 700 ming tonna qo'ng'ir ko'mir, 30-40 ming tonna toshko'mir qazib olinmoqda.

O'lkamiz o'zining hali ishga tushirilmagan ko'mirga boy xazira konlariga

ega. Surxon vohasining Oltinsoy tumani hududida 500 metr chuqurlikda 20 mln. tonna hajmidagi ko'mir koni borligi aniqlangan. Sharg'undan 30 km. masofada 6 qatlamdan iborat yana bir kon topilgan. Undagi ko'mir qatlami qalinligi 1 metrdan 10,3 metrgacha bo'lib, zaxira hajmi 62 mln. tonnani tashkil etadi. Yana bir ko'mir koni Farg'ona viloyatida 500 metr chuqurlikda joylashgan. U yerdagi zaxirasi qatlami 2-6 metri, hajmi 84 mln. tonnani tashkil etishi taxmin qilinmoqda.

Ma'danlarga boy yurtimizda Istiqlol sharofati bilan ko'mir konlariga alohida ahamiyat berilmoqda. Ular zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlandi, texnika xavfsizligiga alohida ahamiyat qaratilyapti. U o'zi qora, tund rangda bo'lsa ham xalqimizning yorug' kunlariga xizmat qilayotgan ko'mirlarni me mashaqqat bilan qazib olayotgan insonlarning g'ayrati va shijoatiga tasannolar aytsak arziydi. Fursatdan foydalanib, konchilarimizni kasb bayramlari bilan muborakbod etamiz.

Jabbor RAZZOQOV,  
O'zbekistonda xizmat  
ko'rsatgan jurnalist

# DUGONALAR




Har bir oilaning obro'si, mahallada tugan o'rni unda ulg'ayayotgan farzandlar kamoli bilan belgilanadi. Bolaning loyga, ota-onaning esa kutolga qiyoslanishi ham bejiz emas. Endigina unib chiqqan mayxaning niholga, niholning esa ildizlari mustahkam, shoxlari baquvvat daraxtga aylinishi uchun alohida parvarish kerak bo'lganidek, farzandlar kamoloti uchun ham oilada ularning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratmoq lozim. O'rmondagi eng katta daraxt ham milligina urug'dan unib chiqqani kabi farzandlar kamolotining tamal toshi aynan oilalarda qo'yilmog'i lozim.

Bugun sahifamizda noyob iste'dodi, qo'lga kirilayotgan yutuqlari tufayli ota-onasi, ustozlariga rahmatlar keltirayotgan, oilasi obro'sini ko'larayotgan qizlarimiz haqida hikoya qilishga chog'landik.

O'qing, havas qiling. Siz ham imkoniyat va salohiyatingizning ochilmagan qirralarini namoyon etishga intiling.



**Amina oilaning to'ng'ichi.**  
7 yoshidan rasm chizishga qiziqib, shahar bolalar ijodiyot markazi qoshidagi tasviriy san'at to'garagiga qatnay boshladi.



**AMINA**

Bugungi kunda Hamza tumanidagi 7-san'at maktabining 4-sinfida tasviriy san'at yo'nalishida tahsil olayotgan, shuningdek, Ichki ishlar vazirligi Madaniyat saroyining «Tasviriy san'at» to'garagida mahoratini oshira borayotgan bu iqtidorli qizimiz tengdoshlari orasida o'ziga xos badiiy ijod yo'li, uslubi, mavzu va suyetlari bilan ajralib turadi. Ustozlari O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Ortiqali Qozoqov, Furqat Bozov, Baxtiyor Botirov, Ra'no Fayziyeva kabi yetuk rassomlardan rangin olam sirlarini o'rganib, tabiat, inson va go'zallikka cheksiz muhabbatini, hayajon va taassurotlarini tasviriy jilolar orqali ifodalashga intilmoqda.

Ijodkor qalbi tabiatdan ulgu, namuna oladi, go'yo. Tuyg'ular, chizgilar, ifoda ijodkorning qalbidan

xabar aytadi, uning ruhiyatidan aks sado bo'lib, qo'g'ozlarga ko'chadi. Aminaning «Orzumdagi daraxt», «Lolazor», «Karvon», «Ertak», «Bahor» kabi asarlari qalbidagi nafis kechinmalarining qog'ozdagi ifodasi bo'lsa, ajabmas.

Yaqinda IIV Madaniyat saroyida uning rasmlari

ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Ko'rgazmalar taniqli ijodkorlar uchun ham, yosh iste'dodlar uchun ham sinov maydoni vazifasini o'tashini yaxshi bilamiz. Amina qizimiz ham ma'lum ma'noda noyob iqtidor-u iste'dodini tengdoshlari, ustozlari, mohir musavvirlar sinovidan o'tkazdi, desak xato bo'lmaydi.

Ko'rgazmaga qo'yilgan ijodiy ishlarini biz ham hayrat va hayajon bilan tomosha qildik. 14 yoshli o'smir qizning noyob iste'dodiga, mahoratiga tan berdik.

Kelajakda yetuk rassom bo'lib, jannatmakon o'lkamizning betimsol go'zalligini o'z asarlarida aks ettirish, shuningdek, zamonaviylik va milliylik uyg'unlashgan liboslar yaratib, o'zbekona go'zallikni dunyoga ko'z-ko'z qilish niyatida izlanayotgan Aminaxona san'atining sirli olamida o'z munosib o'rni egallashiga tilakdosh bo'lib qolamiz.

*Ko'rgazmadan M.YUSUPOV olgan suratlar*



# ANISA

Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 41-maktabning 2-«J» sinf o'quvchisi Anisa Shozodullayeva ham iste'dodli qizlarimizdan biri. Uning qiziqishlarini o'z vaqtida payqagan ota-onasi sport bilan shug'ullanishiga, rasm chizishiga jiddiy e'tibor qaratishdi. 6 yoshli qizaloqqa yuz ranj ila harf o'rgatgan ustoz Gulnora Jamolova uni sinfdoshlariga doimo ibrat qiladi. Ibrat qilsa arziyida axir, ikki yil mobaynida biror kun ham dars qoldirmagan Anisa jonajon maktabini o'z uyidek sevadi. Jismoniy tarbiya, husnixat, rasm darslari jon-u dil. O'zi a'lo o'qibgina qolmay, Abduqodir



**ZULAYHO**

Iqtidorli, intiluvchan qizlarimizdan biri Zulayho Rahmatullayeva kamol topayotgan oilaga ko'plar havasmand. Undagi tasviriy san'atga bo'lgan mehnati, ijodga bo'lgan ishtiyogini dadasi – taniqli musavvir Habibulla Rahmatullayev uyg'otgan bo'lsa, ajabmas. Juda kichikligidanoq rassomlikka qiziqqan Zulayho bolaligini shunday xotirlaydi:

– Dadam mohir rassom edilar. Uzoq yillar mobaynida nashriyotda, bolalar nashrlarida samarali mehnat qilganlar. Uyda ham juda ko'p ishlardilar. Yodimda bor, ko'pincha rasm chizayotgan dadamning yonlariga borib, men ham chizaman, deyga xarxasha qilardim. Dadam meni tizzalariga o'tqizib, qo'limga mo'yqalam tutqazardilar va biz birgalikda rasm chizardik. Bolalikdagi bu qiziqishlarim Toshkent shahridagi 82-maktabda o'qib yurgan kezlrim yanada orta bordi. Maktab qoshidagi biserlik, tikuvchilik, zardo'zlik to'garaklarida o'rganganlarim ko'plab rasmlar chizishimga, tasavvurimdagi qahramonlarimni yaratishimga zamin bo'ldi...

Oilada, to'garaklarda olgan saboq va ko'nikmalarini Shayxontohur tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazi qoshidagi tikuvchilik, to'quvchilik to'garaklarida yanada mustahkamlab borgan Zulayho NNT «Yangi avlod forumi» «Eski shahar» bolalar va o'smirlar ijodiyot markazida faoliyat yuritayotgan liboslar dizayneri to'garagiga qatnashga ham fursat topa oldi.

Oradan yillar o'tib, tinimsiz mehnatlari, izlanishlari o'z samarasini bera boshladi. 2008-yilda «Yangi avlod» bolalar ijodiyot festivali laureati bo'lib, Diplom bilan taqdirlandi. Hayotidagi bu ilk muvaffaqiyatlari uchun ustozlari Turg'unoy Olimova va Zulfiya Rasulovadan cheksiz minnatdor bo'lib, zavqli ijod olamiga sho'ng'idi. Respublika rassomchilik kollejining tarixiy teatr liboslari fakultetida tahsil olgan kezlari san'at tarixi, libos tarixi, rangshunoslik, matolarga ishlov berish, kompozitsiyalar yaratishga doir bilimlarini boyita bordi.

«Bolajonlar-shirintoylar – 2013» bolalar moda festivalida har yilgidan o'zgacha ishlari bilan qatnashishni niyat qilgan Zulayho bolalar liboslarini matodan emas, qog'ozdan yaratishga harakat qildi. «Bahor tarovati» deb nomlangan kolleksiyasidan nastarin, nartsis, moychechak, qo'n-g'iroq kabi gullar, qushlar va hasharotlar timsolidagi 15 ta liboslari o'rin oldi. Umidli dizayner qizimiz tinimsiz mehnatlari, ijod va izlanishi, innovatsion g'oyalari mahsuli bo'lgan mazkur kolleksiyasi orqali kichikintoylar qalbidagi gullarga, jonzotlarga, qo'yingchi, ona tabiatga mehr uyg'otishni niyat qilgan bo'lsa, ne ajab?!

*Sahifani FERUZA tayyorladi*



Rustamov, Mehira Rashidova, Abubakir Rainov singari sinfdoshlariga ham bilganlarini o'rgatadi. Tirishqoq, intiluvchan bu qizaloq kelgusida ibratli yutuqlari bilan nafaqat sinfi, balki maktabining ham faxriga aylinishi shubhasiz.

Dilafuz XALILOVA.  
Davron AHMEDOV olgan surat



**BAHOR**

Misralarda bitilgan yog'du,  
Ko'ngillarni iliti nogoh.  
Ko'lmaklarning oqdi ko'z yoshi,  
Quyosh kulib boqdi banogoh.

Qizg'aldoqlar beli bog'lanib,  
Qirlaringga tashladi gilam.  
Quyosh nurin ichgan tuproqning,  
Siyratidan boshlandi ko'klam.

Tonglaringda tushgan bu shudring,  
Ko'kdan kular misli kamalak.  
Anhorlarni to'ldirgan suvlar,  
Mo'l hosildan beradi darak.


*Durdona SHAROFIDDINOVA,  
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq  
tumanidagi 45-umumta'lim  
maktabining 7-sinf o'quvchisi*



**MEN SHE'R  
YOZSAM...**

Tong saharda uyg'onib,  
Dil zavqini so'yladim.  
Borliqdan ilhom olib,  
Yurt madhini kuyladim.  
Bobomning huzuriga,  
Oshiqib bordim chunon.  
She'rim tinglagan bobom,  
Behad bo'ldilar shodon.  
Bobom yonida bo'lsam,  
Zavqqa to'lar yuragim.  
Hikmatlarin ilg'asam,  
Bajo bo'lar tilagim.

*Sarvinoz SHOMURODOVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
Qamashi tumanidagi  
45-umumta'lim maktabining  
7-«A» sinf o'quvchisi*



**TURNALAR**

Qarang, ko'kda turnalar,  
Qator bo'lib o'tishar.  
Ular bunday tartibni,  
Qay maktabda o'qishar?!

Bir tekisda uchishar,  
Tortib qo'ygandek ipni.  
O'rgansak bo'lar ekan,  
Turnalardan tartibni.



*Fotima NORQULOVA,  
Toshkent shahar, Chilonzor  
tumanidagi 162-maktabning  
5-«A» sinf o'quvchisi*

**Shodmon OTABEK**

Kutilmaganda eshik qo'ng'irog'i  
jiringlab qoldi. Asil suyunib ketdi: mabodo  
mehmon kelsa, oyisi yumshab, ko'chaga  
chiqishiga ruxsat berishi mumkin.

Oyisi ayvonda kir yoyayotgani bois,  
eshikni borib o'zi ochdi.  
Ostonada qo'shni yo'lakda  
yashaydigan Aziz iljayib turardi.

– Asil, Zuqqining (Zuhriddin  
demoqchi) iti tug'ibdi, yur,  
kuchuklarni ko'rib kelamiz.

– Vuy, rostdanmi?

– O'zim ko'rdim.

– Borardim-u... oyim... – Asil  
peshonasini qashlab, burnini tortdi.

– E-e, lip etib quyon bo'lsang,  
bilib o'tiribdilarni?

– Asil, nima gap? Kim keldi? –  
ichkaridan oyisining ovozi, keyin  
esa qadam tovushlari eshitildi.

Bolalar birdan jimib,  
sarosimaga tushib qolishdi.  
Oyisi nima gapligini darrov  
fahmladi, shuning uchun  
gapni qisqas qildi:

– Asil bugun ko'chaga  
chiqmaydi!

Aziz hafsalasi pir bo'lib,  
indamay orqasiga burilib ketdi. Asil  
noiloj xonasiga qaytdi. Oradan ko'p  
o'tmay ketma-ket aksa urdi. Tinimsiz  
oqayotgan burnini boshqarolmay ancha  
ovora bo'ldi. Holsizlanib, o'tirgan joyida  
yonboshlab qoldi. Issig'i ko'tarilib  
ketganini ko'rgan onasi:

– Yomg'irda ko'p yurganing uchun  
shamollab qolibsam, o'g'lim, – dedi  
tanbehomuz ohangda zorlanib. – O'jarsan,  
qulog'ingga gap kirmaydi, mana oqibati.  
Endi qimirlamay o'ranib yotasan. Men  
hozir tovuqsho'rva qaynataman, issiq-  
issiq ichib olsang, darrov tuzalasan.

(Davomi bor)



**SAHRODAGI QUSH**

*Saksovol tepasiga  
Omonat uya qurib,  
Shod yashaydi o'zicha  
Palaponlar o'stirib.*

*G'ayrati jo'shib, yuksak  
Ko'tarilsa samoga,  
Ko'zi tushar olisda  
Vodiyarga, daryoga.*

*Xush ko'rsa ham yiroqdan  
Jilva qilgan chamanni,  
Tark etmas qumi qaynoq  
Sahrosini – Vatanni.*



**QO'ZICHOQ**

*Qo'zichoq deb suydilar,  
Ko'zmunchoq deb suydilar,  
Irg'ishlasam, quvonib  
Voy, quvnoq deb suydilar.*

*Yaxshi qarab suydilar,  
Yuvib, tarab suydilar.  
...Semirmasam bo'larkan,  
To'yga atab so'yadilar.*



**AFRIKALIK  
BOLA**

*– O'lkangizda bir oyki,  
Sayohatda yuribman.  
Yurtingizni yurtimga  
Sal o'xshatib turibman.*

*Hayratdamiz, g'alati  
Mehmon bola so'zlari:  
– Bizda kun issiq, sizda  
Odamlarning yuzlari.*

*Sodiqjon INOYATOV,  
Xorazm viloyati, Gurlan tumani*

**TUG'ILGAN KUN**

Tasavvuridagi to'ntarib qo'yilgan katta  
qozon – osmon ham birdan  
kichrayib qolgandek tuyuldi. Qora-  
qo'ng'ir bulutlar ayovsiz bostirib  
kela boshladi. Momaqaldiriq  
guldirab, chaqmoq chaqdi. Asilning  
yuragi beixtiyor zirillab ketdi,  
ammo unchalik qo'rqmadi.

Orqasidagi og'irlashib qolgan sumkani bir  
silkiib olgach, yo'lakdan bamaylixotir yurib  
kelaverdi. Yonidan ko'lmaklarni sachratib,  
o'zaro quvlashmashoch o'ynashayotgan-  
dek yelib borayotgan mashinalarga bir  
lahza havaslanib qarab qoldi. Uyiga oshiqib  
borayotgan bolakaylarga, boshiga  
shamsiya tutgan kattalarga ajablangandek  
tikildi: axir yomg'ir mazza-ku! Shoshish-  
ning nima keragi bor?!

Ha, kattalarni tushunish qiyin. Hozir  
uyga borsam, oyisi baribir ko'chaga  
chiqarmaydi. Shuning uchun shoshilmay,  
bir yomg'irga to'yib olishi kerak. U  
yomg'irni yaxshi ko'radi.

Asil o'ziga qolsa hali-beri ko'chadan  
qaytgisi yo'q edi-yu, ammo qorni ochgani  
uchun noiloj sudralib uyga qaytib keldi.  
Sochidan tortib to butun kiyim boshi-yu  
tullisigacha ivib, shalabbo bo'lgan edi.  
Ahvolini ko'rgan oyisi astoydil koyiy ketdi:

– Voy, sho'rim! Suvga tushgan  
mushukdek bo'kib qolibsam-ku! Akalaring  
ham hozirgina maktabdan kelishdi, ammo  
ular senchalik ivishmagan-ku?!



(Hikoya)

Xullas, oyisi uni jazoladi.

Bu orada yomg'ir ham tinib qoldi.

Akalari – Azamat bilan Alisher darklarini  
qilgach, kichkina Anorani yetaklab  
o'ynagan ko'chaga chiqib ketishdi.

Asilning miyasiga shu tobda dars  
kirmas, xayoli ko'chada edi. Bir-ikki marta  
o'g'rincha derazadan tashqariga  
qaramoqchi bo'luvdi, oyisi sezib qolib,  
urishib berdi. Noiloj yana kitobni qo'lga  
oldi, ammo sahifaga tikilgan ko'zlari hech  
nimani ko'rmas, ichi qizib borar, go'yo  
ko'kragiga qamalib olgan qushcha uchib  
ketolmay tipirchilar edi.

O'zbekiston – iste'dodlar mamlakati. Bu yurtda kamolga yetayotgan har bir o'g'il-qizning qalbi orzulariga to'la. Ana shu beg'ubor orzular ijobati, yoshlarning kelajakka ishonch bilan boqishi uchun bugungi kunda mamlakatimizda barcha sharoitlar muhayyo etilgan. Ta'lim, sport sohalarida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, so'zsiz farzandlarimizning har jihatdan sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishlari yo'lida qilinayotgan ezgu harakatlardir. Quvonarlisi, yoshlarimiz ham bunday inkoniyatlarga javoban o'z iqtidor va salohiyatlarini namoyon etib, yurt nomini sharaflashmoqda.



## TEMUR SOURINDORLAR SAFIDA

Kuni kecha Gretsiyaning Porto Karras shahridan xushxabar oldik. Ushbu shaharda shaxmat bo'yicha maktab o'quvchilari o'rtasida bo'lib o'tgan jahon chempionatida yosh shaxmatchimiz – FIDE ustasi Temur Igonin musobaqaning bronza medalini qo'lga kiritibdi.

Ushbu nufuzli turnir Xalqaro shaxmat federatsiyasi – FIDE shafeligida tashkil etilgan bo'lib, unda dunyoning qirqdan ziyod mamlakatidan olti yuzga yaqin o'g'il-qiz o'z yosh toifasi bo'yicha g'oliblik uchun dona surdi.

Aytish munkinki, ushbu

jahon chempionatida yosh va umidli shaxmatchilari o'zlarining eng ajoyib va esda qolarli o'yinlarini o'tkazishdi. Ayniqsa, Temur Igoninning o'yinlari muxlis-u mutaxassislarda katta qiziqish uyg'otdi. Uning har bir partiyadagi kutilmagan qarorlari raqiblarini ancha shoshirib qo'ydi. Qariyb sakson nafar shaxmatchi ishtirok etgan 13 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar musobaqasida Temur mag'lubi yatsiz dona surdi. U chempionat davomida gretsiyalik Stavropulos Konstantinos, turkiyalik Rad Jannesar, Faruk Umar

O'zer, Bahodir O'zen va rossiyalik Dinar Abelguzini mag'lub etgan bo'lsa, yana to'rt partiyada durang o'ynab, yetti ochko jamg'argan holda jahon chempionatida uchinchi o'rinni egalladi.

2000-yilda poytaxtimizda tug'ilgan Temur Igonin olti yoshidan boshlab shatranj o'yini bilan muntazam shug'ullanib keladi. Uning eng yoqtirgan shaxmatchisi Rustam Qosimjonov bo'lib, kelajakda u kabi jahon chempioni bo'lishni orzu qiladi. Biz umidli sportchimizdan kelgusida bundan-da yuqori natijalarni kutib qolamiz.

## GIMNASTIKACHILARIMIZ G'ALABASI

Yurtimizda go'zal, nafis sport turlaridan biri bo'lgan badiiy gimnastika bilan shug'ullanuvchi qizlarimiz soni orta borayotgani, ularning turli xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishayotgani quvonarli holdir.

Yaqinda Rossiyaning Ivanovo shahrida o'tkazilgan xalqaro turnirda ham yosh sportchilarimiz munosib ishtirok etib, mamlakatimiz chinakam iste'dodlar yurti ekanini dunyo sporti jamoatchiligiga yana bir bor namoyon etishdi. Mazkur yirik musobaqada Rossiya, O'zbekiston, Ukraina, Polsha, Chexiya, Kuba kabi 15 davlatdan yuz nafarga yaqin sportchi ko'pkurash, yakkalik va guruh bahslarida o'zaro bellashishdi.

Turnirning yakkalik bahslarida poytaxtimizdagi Badiiy gimnastika bo'yicha bolalar va o'smirlar respublika ixtisoslashgan Olimpiya zaxiralari sport maktabi o'quvchilari Zulfiya Yo'ldosheva va Nilufar Shomurodovanning muvaffaqiyatli ishtiroki yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Zulfiya tasma yordamida mashq bajarish bo'yicha kumush medal bilan taqdirlangan bo'lsa, Nilufarning to'p bilan bajargan kompozitsiyasi bronza medaliga loyiq topildi.

Albatta, bunday yirik, nufuzli sport musobaqalarida yosh sportchilarimizning muvaffaqiyatini eshitganimizda, qalbimizni faxr tuyg'usi egallaydi.

Shunday kezlarda, yurtimizdagi barcha o'quvchi-yoshlarga qarata, sport bilan jiddiy shug'ullanib, u hayotingizning bir bo'lagiga aylansin, chunki u insonni sog'lom, baquvvat qilibgina qolmay, kelajakdagi orzulariga qanot ham bag'ishlaydi, degimiz keladi.

Sa'dullo TURSINOV

## MAHORAT MAKTABI



Nukus shahrida 16 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar o'rtasida tennis musobaqasi yakunlandi.

Yoshlarning sportga, sog'lom turmush tarziga intilishini rag'batlantirish, iqtidor egalarini aniqlash va qo'llab-quvvatlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, «Yoshlik» jismoniy tarbiya va sport jamiyati tomonidan o'tkazilgan musobaqada 60 nafardan ziyod yosh tennischi o'zaro kuch sinashdi.

O'g'il bolalar o'rtasida amudaryolik Zafar Shukrullayev, Doniyor Kamolov va nukuslik Quvonch Nurillayev, qizlar o'rtasida Nukus shahridan Nasiba Espolova, Nodira Yo'ldosheva va Mehri Musayeva g'oliblikni qo'lga kiritishdi.

### ZAVQI BALAND, G'AYRATI ZO'R!



Namangan shahridagi 25-Olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabida 324 nafar o'g'il-qiz 14 nafar malakali murabbiylar ko'magida tennis sirlarini chuqur egallashmoqda. Yosh tennischilar uchun mo'ljallangan xonalar, ochiq va yopiq kortlar zamon talablari darajasidagi zarur inventarlar bilan jihozlangan. Bunday shart-sharoit va qulayliklardan unumli foydalanayotgan zavqi va g'ayrati baland sportchilar professional mahoratlarini muntazam oshira borib, musobaqalarda yuqori natijalarga erishmoqdalar.

### YOSH SPORTCHILAR MASKANI



Buxoro viloyatida millionlar o'yinini yanada ommalashtirish, umidli, yosh futbolchilar uchun barcha qulayliklarni yaratish borasida izchil ishlar olib borilmoqda.

Romitan tumanidagi 42-futbolga ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internati umidli futbolchilar kamol topayotgan sport maskanlaridan. 150 nafar tarbiyalanuvchi mustahkam moddiy-texnik baza va malakali murabbiylar sabog'i uyg'unligida mahoratini oshirayotgan mazkur maktab-internatda milliy kurash va boks bo'yicha ham muntazam mashg'ulotlar yo'lga qo'yilgan.

Tuman, viloyat, hatto respublika miqyosida o'tkazilayotgan musobaqalarda mazkur maskanning salohiyatli sportchilari yuqori pog'onalarni zabt etmoqda.

Shoh MUHAMMAD

– Oyi, ko'zimga quyosh tushyapti, – deya injiqlandi mashinada ota-onasi bilan buvisinikiga ketayotgan bolakay.

– O'g'lim, unda soya tomonga o'tib ol, – dedi oyisi beparvogina.

Mashinaning orqa o'rindig'ida, gohu tomonga, gohu bu tomonga o'tib, quyoshdan berkinayotgan bolakay yana nolidi:

– Oyi, men quyoshni yomon ko'raman...

Kutilmagan bu gapdan onasi hayron bo'lib o'g'liga yuzlandi:

– Nega, o'g'lim? Quyosh seni xafa qildimi?

– Ha, xafa qildi. Uning nurlari ko'zimga tushayapti.

– Yo'q, o'g'lim, bunday demagin, – farzandining injiqligini ko'rib, unga yotig'i bilan tushuntira boshladi onasi. – Bir o'yilab ko'rgan-a, agar quyosh bo'lmasa, sen sovuq yeb qolasan. Daraxtlar, parranda-yu jonivorlar, hatto mitti hasharotlarga ham quyosh kerak! Sevimli mevalarini ham yeya olmasan. Axir olmani

yaxshi ko'rasan-ku, to'g'rimi?! Agar quyosh bo'lmasa, olma pishmay qoladi-da.

Onasining gaplarini eshitgan bola biroz o'ylanib qoldi. So'ngra, dedi:

– Oyi, unda men velosipedimni ham ucha olmaymanmi? Axir o'zingiz aytgandingiz-ku, kunlar isib, qorlar erisa, velosipedingni haydaysan, deb, to'g'rimi?

– To'ppa-to'g'ri! O'zimming aqlligimam. Hayotda har bir narsaning o'z o'rni va vazifasi bor. Buni aslo esdan chiqarmagin.

– Xo'p bo'ladi, oyijon. Endi quyoshni yaxshi ko'raman.

Bolakay shu gaplarni aytib, mashina oynasi tomonga yaqinlashdi va ko'zlarini yumgancha quyoshga yuzini tutib, jilmayib shirin xayollarga berildi.

Mayna HASANOVA



## NOODATIY MAKTABLAR


Bu, qiziq!



### Suzuvchi bilim dargohi

Hindi-Xitoy yarim orolidagi Tanlesar ko'li Kombodja mamlakatining yirik chuchuk suv zaxirasi hisoblanadi. Ushbu ko'l ustida Kompong Luong nomli suzib yuruvchi qishloq bor. Bu qishloq hududida turarjoy binolari, do'konlar, kafe va maktablar joylashgan. Ota-onasiz bolalar uchun maktab ikkinchi uy vazifasini ham o'taydi. Kombodjada bo'ladigan yomg'irlar mavsumida ko'lining sathi ko'tarilganda, qayiqlarda hayot kechiradiganlar uchun katta xavf tug'iladi.

Maktabning moddiy ahvoli mamlakatga kelgan sayyohlar hisobiga qondiriladi. Sayyohlar o'sha yerdagi do'konlardan turli sovg'alar xarid qilib, bolalarga ulashadi.



### Sarguzashtlar maskani

AQSHda «Watershed school» nomli sarguzashtlar maktabi bor. Bu maktab yoshlarning fermerlikka bo'lgan qiziqishlarini oshirish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan.

Maktab o'quvchilariga bir necha yil davomida fermerlikni rivojlantirish saboqlaridan tashqari aniq fanlar o'qitiladi.

Bu maskanning «Sarguzashtlar maktabi» deb nomlanishining sababi, ba'zi darslar, jumladan, arxitektura fani shahar ko'chalarida, geologiya fani o'rmonlarda, daryo bo'ylarida, biologiya fani qo'riqxonalarda o'tiladi. Bu maktabda o'quvchilarga qo'shimcha musiqa, robot yasash, rok guruhlar tashkil qilish, ssenariylar yozish ham o'rgatiladi. Ko'plab sport turlari, yoga mashqlari bilan shug'ullanishadi, tog' velosipedlarida uchishadi.

Nigora ABDUNAZAROVA

## AQLLI QALDIRG'OCHLAR

(Voqeiy hikoya)

Har yili bahorda qaldirg'ochlar ayvonimiz peshtoqiga qurgan uyasida bola ochish uchun uchib keladi. Bu yil ham shunday bo'ldi. Uch-to'rt kungacha qaldirg'ochlar inini

ta'mirlash bilan ovora bo'lishdi. Bu orada hovlimizdagi musichalar ularning inini egallab olib, navbatma-navbat qo'riqlay boshlashdi. Qaldirg'ochlar esa musichalarni inlaridan chiqarib yuborolmay, jon holatda chug'urlashardi. Men esa qaldirg'ochlarga yordam berish niyatida

musichalarni quvardim. Bu holatni kuzatib turgan onam:

– Bolam, qushlarning ishiga aralashma. Qaldirg'ochlar juda aqlli qush, nima qilishni yaxshi biladi, – dedilar. Shundan so'ng men voqea nima bilan tugashini

kuzata boshladim. «Qo'riqchi» musicha ovqat izlab uchib ketgan paytda qaldirg'ochlar inini egallab olishdi va galma-gal qo'riqlay boshlashdi. Og'izlarida loy, xascho'p olib kelib, inlari devorini ko'tara boshlashdi. Oradan ikki kun o'tgach, qaldirg'ochlar ko'rinmay qoldi. Musichalar esa yana paydo bo'lishdi.

– Obbo, – deb o'yladim men. – Musichalar yana inini egallab oladigan bo'lishdi-da. Ammo buni qarangi, musichalar har qancha harakat qilishmasin, inga kira olmadilar. Inning devori balandlashib, musichalar sig'may qolishgan edi. Qaldirg'ochlar esa chug'urlashib, inlariga bemaolol kirib-chiqib yurardilar...

Onam to'g'ri aytgan ekanlar, qaldirg'ochlar chindan ham juda aqlli qush ekan.

Bahrom AKBAROV



## QULUPNAYLI SHIRIN KULCHA

Kerakli masalliqlar:

600 gramm un, 50 gramm xamirturush, 1 piyola shakar, 2 dona tuxum, 150 gramm sariyog', 100 gramm mayiz, 50 gramm maydalangan limon yoki apelsin po'stlog'i, bir chimdum tuz, vanilin.

Tayyorlanishi:

600 gramm un elanib, 150 gramm yumshatilgan



sariyog' bilan uqalanadi. 1 piyola shakarga 50 gramm xamirturush, bir chimdum tuz, vanilin solib aralashiriladi. Va tayyor massaga qo'shiladi. 2 dona tuxum, 100 gramm mayiz, 50 gramm maydalangan limon yoki apelsin postlog'i solib, yumshoq xamir qoriladi. Xamir tindirib, oshiriladi. Yog'langan qolip yoki tovaga qo'yib, qizdirilgan gaz pechida 200 daraja haroratda pishiriladi. Tayyor bo'lgan shirin kulcha ustiga qand upasidan sepib qulupnaylar bilan bezatilsa, pishirig'imiz ko'rkam va xushta'm bo'ladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

8

20-may 2013



Bosh muharrir  
Feruza JALILOVA

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar (jimoiy harakati Markazi) Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Quroqboy ERGASHEV,  
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi muharrir  
Dilorom HOTAMOVA  
Rassom  
Feruz MATYOQUBOV  
Dizayner  
Olovuddin ORIPOV  
Musahhib  
Nargiza ABDULLAYEVA

Manzillimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi - 84804 Buyurtma N: J 7163